Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOTINING IJTIMOIY DETERMINANTLAR: IJTIMOIY- FALSAFIY TAHLIL

Abdulatif Abidjonovich Abdumalikov*
Farg‘ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
✉ abdumalikovabdulatif@gmail.com

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti tushunchasining nazariy-metodologik masalalari, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy determinantlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

jamiyat, ijtimoiy determinantlar, ijtimoiy ong, mo‘ljal, kognitiv, emotsional va xulq-atvorga oid elementlar, ijtimoiy mo‘ljallar.

DOI: 10.5281/zenodo.23279135

KIRISH

Mamlakat taraqqiyotining turli tarixiy davrlarida, ayniqsa, uning yuksalish bosqichlarida jamiyat va uning taraqqiyotini belgilovchi omillarning o‘zaro nisbati dialektikasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan doimo mushohada etiladi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonning bugungi innovatsion rivojlanishi bosqichida, bir tomondan, davlatning ijtimoiy – siyosiy funksiyalari tabiati qanday; ikkinchi tomondan, jamiyatning ijtimoiy, ma’rifiy, siyosiy – tarbiyaviy jihatdan yuksalishini ta’minlovchi determinantlari nimalardan iborat, degan savollarga ilmiy yechim izlash ijtimoiy fanlar, xususan ijtimoiy falsafa fanining dolzarb mavzusiga aylanganligini ta’kidlash lozim.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar[1]” belgilanganligi e’tiborga loyiq.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotini ta’minlashdagi eng asosiy mezon ijtimoiy ongning tabiat va uning fuqarolarda yuksak darajada shakllanganligidir. Zero, ijtimoiy ong jamiyat hayotidagi turli yuksalish va tanazzullarning asosiy manbaidir. Shu jihatdan, jamiyat taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarni jamiyatda shakllangan ijtimoiy ongsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Ijtimoiy ong shakllarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi: funksional individualligi ham, integratsiyalashuvga «moyilligi» ham, potensiali ham, jamiyat intellektual salohiyati darajasiga; ikkinchi tomondan, jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi va uning darajasini ko‘rsatuvchi ijtimoiy ong shakllarining ijtimoiy ong shakllarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi: funksional individualligi ham, integratsiyalashuvga «moyilligi» ham, potensiali ham, jamiyat intellektual salohiyati darajasiga; ikkinchi tomondan, jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi va uning darajasini ko‘rsatuvchi ijtimoiy ong shakllarining individual funksionallashuvi, jamoatchilik fikrini transformatsiya qilish usul-vositalari mukammalligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy ongning murakkab elementlarini o‘rganish va ular shaxsiy va guruhiy darajalarda qaysi qonuniyatlarga muvofiq amal qilishi haqida tasavvur hosil qilish uchun ularning tuzilishini ko‘rib chiqamiz. Falsafa fanida bo‘lganidek, siyosat falsafasida ham ongni tahlil qilishda elementlarning ikki guruhini – motivatsiya

va bilish bilan bog‘liq elementlarni farqlash odat tusini olgan. Motivatsiya bilan bog‘liq elementlarga ehtiyojlar, qadriyatlar, mo‘ljallar va tuyg‘ular, bilish bilan bog‘liq elementlarga – siyosat va ijtimoiy hayot haqidagi bilimlar, xabardorlik, qiziqishlar va e’tiqodlar kiradi. Mazkur tasnif ko‘p jihatdan shartlidir, chunki elementlarning yuqorida zikr etilgan ikki guruhi hayotda bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ularning ayrim eng muhim elementlarini ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy ongning motivatsiya bilan bog‘liq elementlarini ularning biri – mo‘ljal misolida ko‘rib chiqamiz. Mo‘ljal subyektning o‘ziga xos holati bo‘lib, u subyektning muayyan vaziyatdagi muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakatni bajarishga tayyorligini tavsiflaydi. Mo‘ljal harakatdan oldin keladi va uning dastlabki bosqichi, harakatga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Mo‘ljal D.N.Uznadze fikricha, bir tomondan, vaziyat bilan, boshqa tomondan esa – ehtiyoj bilan uzviy bog‘liq[2].

Mo‘ljal inson xulq-atvori va ongining motivatsion mexanizmlaridan o‘rin olganining sababi shu bilan belgilanadiki, birinchidan, u faoliyatni muayyan obyektga yo‘naltirish uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, ehtiyojlar va motivlarning nisbatan barqaror shaklini ta’minlaydi. G.G.Diligenskiy fikriga ko‘ra, mo‘ljallar tufayli subyekt ehtiyojlari va ularni qondirish usullari nimadan iborat ekanligini muntazam ravishda aniqlashiga hojat qolmaydi: ular mo‘ljallarda qayd etilgan bo‘ladi[3].

Ijtimoiy faoliyatda mo‘ljal inson yoki guruh xulq-atvorini tartibga soluvchi omil hisoblanadi. U hokimiyatga, davlatga nisbatan shaxsning ijobiy yoki salbiy munosabatini shakllantiradi. Odatda tadqiqotchilarni va ularning buyurtmachilarini aniq mo‘ljallar, chunonchi: siyosiy tizimga, umuman tuzumga, muayyan siyosiy institutlarga, siyosiy liderlarga va hatto u yoki bu siyosiy qarorlar yoki ijtimoiy voqealarga mo‘ljallar qiziqtiradi.

Falsafiy tadqiqotlarda mo‘ljal tuzilishida uch element: kognitiv, emotsional va xulq-atvorga oid elementlarni farqlash odat tusini olgan. Bu elementlarning har biri “subyekt faolligini tartibga soluvchi nisbatan mustaqil kichik tizimlarni” tashkil etadi.

Mo‘ljalning kognitiv elementi shaxsda dastlabki bilimlar, ijtimoiy hayotga, siyosatga qiziqish mavjudligini nazarda tutadi. Mazkur elementning mavjudligi shaxs o‘zi biladigan uning e’tibori qaratilgan partiyalar, siyosatchilar va jarayonlar haqidagi axborotning saralanishini tushuntiradi. Ijtimoiy obyektga emotsional munosabat (yoqadi – yoqmaydi, yoqimli – yoqimsiz, ishonadi – ishonmaydi), odatda, u haqidagi axborotni tanqidiy idrok etishdan oldin vujudga keladi. Mazkur elementsiz irqiy andozalar, diniy va milliy sabr-toqatsizlik hollari bu darajada ulkan ahamiyat kasb etmagan bo‘lar edi. Nihoyat, mo‘ljalning xulq-atvorga oid elementi harakatga, chunonchi: ovoz berishda qatnashish, namoyish yoki mitingda ishtirok etish, partiyaga a’zo bo‘lish yoki terrorchilik harakatida ishtirok etishga tayyorlikni anglatadi.

Fuqarolarning ijtimoiy ongi ancha ziddiyatli xususiyat kasb etadi. Birinchidan, ularning tasavvurlari ba’zan o‘zaro muvofiq kelmaydi. Bu fenomen ba’zan barqaror jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ammo keng ko‘lamli siyosiy inqiroz sharoitida shaxs darajasida ijtimoiy ongning ziddiyatliligi ayniqsa yuksak darajaga ko‘tariladi va shaxsning ikkilanishiga yaqinlashadi. O‘z tadqiqotimiz doirasida biz eski avtoritar va yangicha demokratik qarashlarning yonma-yon mavjudligigagina emas, balki ayrim mo‘ljallar yoki liderlarni oqilona ma’qullash bilan qarama-qarshi mo‘ljallar yoki liderlarga emotsional simpatiya o‘rtasidagi ziddiyatga ham duch keldik.

Ijtimoiy mo‘ljallar tadqiqotchilar va amaliyotchilarda qiziqish uyg‘otayotgani shu bilan belgilanadiki, ularni qarorlar qabul qiluvchilar va qarorlarni bajaruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa vositasi sifatida hisobga olish zaruriyati paydo bo‘ldi. Mo‘ljallar bir-biridan, eng avvalo, ular shaxsda qay darajada rivojlangani bilan farq qiladi.

Ijtimoiy ongning motivatsion elementlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, yana shuni ham qayd etib o‘tishni istar edikki, mo‘ljallar siyosiy muhitning tashqi omillarini belgilovchi shaxs ichki mexanizmlarining harakatini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ongning mazkur tuzilmalari shu bilan tavsiflanadiki, ular siyosiy jarayonlar va hodisalarni idrok etish dinamikasini belgilaydigan emotsiyalardan iboratdir.

Ijtimoiy falsafa ongning boshqa bir tomoni – bilishni ham farqlaydi. Empirik tadqiqotlarda uning ko‘rsatkichlari sifatida shaxsning siyosatga bo‘lgan qiziqishi, uning xabardorlik darajasi, siyosiy voqealar va liderlar haqidagi bilimlari va nihoyat, uning tasavvurlari muayyan mafkuraviy sxemaga solinganligi amal qiladi.

Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning eng muhim jihatlaridan yana biri bevosita ijtimoiy ongning moddiy va ma’naviy faoliyatda namoyon bo‘lishi va uning insonparvarlik mohiyati bilan izohlanadi. Jahon tarixiy tajribasidan ma’lumki, kishilik jamiyati silivizatsiyasining har qanday bosqichida moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini uyg‘unlashtirish barqaror taraqqiyot uchun asos bo‘lgan. Ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida ham butun dunyoda tinchlik, hamkorlik, global barqarorlikni ta’minlash – moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini uyg‘unlashti-rishga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini uyg‘unlashtirish dialektikasi xususiyatlarini aniqlash zarurligini belgilaydi. Ushbu dolzarb masalaning yechimi moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish sohasidagi islohotlarni yanada takomillishti-rishni hamda amaliyotga keng joriy qilishni taqozo qiladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida iqtisodiyotni liberallashtirish, innovatsion g‘oyalarni hayotga keng joriy qilishi, “....mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor islohotlariga o‘tishi ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo‘lgan yangicha yondashuvlarga yo‘l ochib berdi”[4]. Bu esa ijtimoiy taraqqiyotda moddiy va ma’naviy omillarni uyg‘unlashtirish, ishlab chiqarishda raqobatbar-doshlikni rivojlantirishning nazariy-fundamental asoslarini yaratishda keng yo‘l ochadi.

Ijtimoiy falsafada moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu faylasuflar tomonidan hozirgi kunda ham izchil tahlil qilinmoqda.

XULOSA

Shu bois ijtimoiy taraqqiyotning substratini milliy ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tashkil etishi, bunda insonning mehnat faoliyati moddiylik va ma’naviylikning bir-birlarini taqozo etishi shaklida namoyon bo‘lishini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida / Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: «Adolat», 2018. –B.4.

2. Uznadze D.N. Eksperimentalniye osnovi psixicheskoy ustanovki // Psixologicheskiye issledovaniya.- Moskva: Nauka, 1966. – S.158.

3. Dilegenskiy G.G. Sotsialno politicheskaya psixologiya. – Moskva: Agraf, 1996. –S.56.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. –B .169.

5. Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. –T.: «O‘zbekiston», 2010. 29-b.

6. Mavlonov A.A. Hozirgi zamon fanida inson omilining umumkonsentual nazariyasi muammolariga doir. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 2002. – 1-son. -B.33-34.

7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida// Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi. T.6. -Toshkent: O‘zbekiston, 1998 . – 208-b.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 106-b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // Veb-sayt O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

10. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Toshkent: O‘zbekiston. 2010. -9 -b.